

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	 Seymsik ta'sirlardan qum-gilli gruntlarni mustahkamlash uchun quruq qurilish (sement) aralashmasini ishlab chiqish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: seysmik ta'sir zonalarida qum-gilli gruntlarni mustahkamlash uchun fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan ko'p komponentli sementli kompozitsion materiallar asosida optimal qorishma tarkibini tadqiqot qilish va ishlab chiqiladi; gruntlarning seysmik barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi, ekologik xavfsiz hamda ekspluatatsion ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan ko'p komponentli sementli kompozitsion qorishma texnologiyasini ishlab chiqiladi; yaxshilangan texnologik va ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan ko'p komponentli sementli kompozitsion materiallarni olish bo'yicha texnik shartlarni ishlab chiqish va tajriba sanoat miqyosida ishlab chiqarishga tatbiq qilinadi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.